



OZOD SHAROFIDDINOVNING PUBLITSISTIK MAHORATI

Jo‘ramirzayev Diyorbek Erkin o‘g‘li

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti talabasi O‘zbekiston, Toshkent sh.*

Annotatsiya: Har bir yangi asarni yozish ijodkordan juda katta kuch va jur’at talab qiladi. Adabiyot zarshunosi bo‘lgan tanqidchi va olim Ozod Sharofiddinov ham ana shunday katta jur’atga ega insonlardan biri edi. Adibning turli xil mavzuda yozilgan publitsistik asarlarini o‘qib bunga amin bo‘lasiz. Ushbu maqolada ham tarjimon, munaqqid va yozuvchining ijodiy merosining ba’zi bir xususiyatlari, uning publitsistik mahorati hamda o‘zbek adabiyoti tanqidchilida uning tutgan o‘rni haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: publitsistika, adabiyot, ijod, jasorat, tanqid, jurnalistika, matbuot.

ПУБЛИКАТОРСКОЕ НАУЧИЕ АЗОДА ШАРОФИДДИНОВА

Аннотация: Написание каждого нового произведения требует от создателя огромных усилий и смелости. Критик и ученый литературовед Азад Шарафиддинов был одним из людей с таким большим мужеством. В этом вы убедитесь, прочитав публицистические произведения писателя, написанные на разные темы. В этой статье также рассматриваются некоторые особенности творческого наследия переводчика и писателя, его публицистические способности, а также его роль в качестве критика узбекской литературы.

Ключевые слова: журналистика, литература, творчество, смелость, критика, журналистика, пресса.

PUBLISHING SKILLS OF OZOD SHAROFIDDINOV

Abstract: Writing each new work requires great strength and courage from the artist. The critic and scientist Azod Sharofiddinov, who was a literary critic, was one of those people with great courage. You can be sure of this by reading the writer’s journalistic works written on various topics. In this article, some features of the creative heritage of the translator, critic and writer, his journalistic skills and his role as a critic of Uzbek literature are discussed.

Key words: journalism, literature, creativity, courage, criticism, journalism, press.



Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajodolar merosini o'rghanish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz zarur.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Umr. Ko'z ochib yumguncha o'tib ketadigan vaqt. Umr misoli oqar daryo. Bu daryoga tushdingmi, albatta, harakat qilishing kerak. Aks holda, daryo to'lqinlar seni har tomonga oqizdirib yuborishi mumkin. Goh oqim bo'ylab suzishga to'g'ri kelsa, goh kuchli metin-iroda bilan oqimga qarshi suzishga ham tayyor turishimiz zarur. "Umr" oddiy bir so'z, lekin uning tag zamirida olam-olam ma'no, hayot falsafasi yotadi. Bu vaqt ni qanday o'tkazish esa insonning o'ziga bog'liq. Ayrimlar umrini nolish, g'iybat va yomonlik bilan o'tkazsa, ayrim kishilar uni ilm-fan, ijodga baxsh etadi. Ana shunday insonlardan biri, butun umrini adabiyot, fan-ta'limga bag'ishlagan, hayot yo'li esa yoshlarga o'rnak bo'la oladigan publisist, tanqidchi olim va jurnalist Ozod Sharofiddinovdir.

O'tgan asr o'zbek adabiyotini adabiy tanqidchiliksiz tasavvur etish qiyin. Tanqidchilik she'riyat, nasr va dramaturgiya kabi adabiyotda o'z o'rniga ega. Adabiy tanqidchilik adabiy asarlarni tahlil etish orqali ijodkorning qalb dunyosini ochadi va shu asosda kishilarda ezgu fikr uyg'otadi. Ozod domlaning o'tkir falsafiy qiymatga ega va adabiyotshunoslikning yuksak namunasi bo'lgan asarlari, badiiy tarjimalari, poetika va til haqidagi sermazmun maqolalari va esselarini o'qigan kitobxon hayratga tushadi. Ijtimoiy faol publisist Ozod Sharofiddinov ijodida ma'naviyat, milliy yaxlitlik muammosi ustuvor mavzu sanaladi. Bu borada davlat tili, til ta'limi, til taraqqiyoti kabi masalalar yetakchi muammolar sifatida ko'tarilgan. Zero, har bir davrda zamonning peshqadam olimlari til va jamiyat muammosiga alohida e'tibor qaratgan. O'z davrining yetuk jamoat arbobi Ozod Sharofiddovning o'z tili haqidagi qarashlari, maqolalari, chiqishlari esa o'tkir tafakkur egasining chuqur bilimi, shijoati va mahorati ifodalagani bilan ajralib turadi. "Adabiyot tildan boshlanadi", "Navoiy saboqlari", "Tilda hikmat ko 'p", "Til ilmning darg'asi" kabi maqola va esselarida ona tili, uni rivojlantirish kabi muammolar o'rganiladi. "Zamon. Qalb. Poeziya" asarida esa zamonaviy o'zbek she'riyatining yutuq va kamchiliklari ko'rsatilgan. Uning mantiqli mulohazalari, teran tahlillari mashhur shoirlarning ham e'tiborini qozongan. Shuning uchun shoir G'afur G'ulom unga she'r yozgan:

Jahonda aql-u idrok, zehni donish birla Ozod bo'l,



Hamisha xalq bilan birga sharaflan, ya’ni obod bo‘l.¹

deya tilak bildirgan edi. Asar muallifi o‘zbek adabiy tanqidchiligidan she’riy asarlarni, ilmiy-estetik asosda tahlil qilib ko‘rsatdi. U she’r san’atining g‘oyat nozik turi ekani, unda insonning ajib bir his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari aks etishiga e‘tibor qaratdi. Olimning maqolalari xuddi she’r kabi o‘qiladi va kishida nozik histuyg‘ular uyg‘otadi. Bundan tashqari ulkan jasorat sohibi Ozod Sharofiddinov qalami o‘tkir jurnalist ham edi. Adib mustaqillikdan keyin jurnalistika va matbuot xodimlariga qaratilgan e‘tibor haqida shunday yozgan edi:-“Ijod erkinligi xilma-xil qirralarga ega bo‘lgan, hayotimizning ko‘pgina jihatlariga dahldor murakkab masaladir. Bitta maqolada uni har tomonlama to‘la yoritish, bekam-u ko‘st ochib berish juda qiyin. Biroq uning yana bir tomoni borki, buni **ha** alohida ta’kidlamasa bo‘lmaydi. Ijod erkinligi ijodkorga juda katta yengilliklar berishi, o‘zligini namoyon etishning cheklanmagan imkoiyatlarini in’om etishi bilan birga uning zimmasiga juda katta mas’uliyat ham yuklaydi. Ijod erkinligi matbuotda xilma-xil va rang-barang fikrlar, mulohazalar aytish erkinligidir. Qolaversa, ijod erkinligi xalqqa va tanga fidokorlik bilan xizmat qilish erkinligidir. Erkinlik shunday ne’matki, uni arzimas narsalarga sarflasa, uvoli tutadi. Prezidentimiz matbuot xodimlarining bu yilgi tabrigida jurnalistika kadrlarni tayyorlash, professional mahorat jamiyat rivojida jasorat bilan ishtirok etishini alohida ta’kidlab o‘tdi. Jurnalistlar uchun bu yaqin kelajakda qilinadigan rejalar dasturini, bosib o‘tiladigan yo‘l konturlarini chizib berdi. Endi jurnalistlarga, matbuot bilan bog‘liq ijodkorlarga yeng shimarib, g‘ayrat bilan ishga kirish qoldi xolos”²

Bundan tashqari, adib XX asrning eng mahsuldor va eng sinchkov tarjimonlardan biridir. Undan juda katta ilmiy, publitsistik, ma’rifiy, badiiy tarjima asarlari yangi avlodga meros qoldi. Uzoq vaqt mobaynida bunyod bo‘lgan ushbu tarjima merosini diqqat bilan kuzatgan kishiga shu narsa ravshan bo‘ladiki, Ozod Sharofiddinov doimo va izchil tarzda tarjimaga ijodiy, sotsial bir maqsad bilan yondashgan. O‘z oldiga o‘quvchilarda muayyan tarjima asari orqali muayyan fikr uyg‘otish, fikr hosil qilishlikni maqsad qilib qo‘yan. Bu uning elliginchi yillarda Belinskiy, Dobrolyubov, Gorkiyidan qilgan ilk tarjimalardayoq ko‘zga tashlangan.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda Birinchi Prezidentimizni ishlarini mantiqiy davomi sifatida Shavkat Mirziyoyevning prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab adabiyotga, ma’naviyatga alohida e‘tibor qaratmoqda. Sohani

¹ Озод Шарофиддинов замондошлар хотирасида. -Т.: Шарқ, 2019. - Б. 352.

² Ozod Sharofiddinov. Tanlangan asarlar. -T., 2019. - Б. 8-12



rivojlantirish ma‘naviy hayotimizda o‘chmas iz qoldirgan atoqli yozuvchi va shoirlarning tarixiy xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodning madaniy-ma‘rifiy saviyasini yuksaltirish yuzasidan qator tashabbuslari nafaqat adib va shoirlarni, balki butun xalqimizni ruhlantirdi. 2017-yil³ Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan Toshkent shahridagi Milliy bog‘ hududida Adiblar xiyoboni barpo etildi. Quvonarlisi ushbu xiyobonda “O‘zbekiston Qahramoni”, sabr va matonat timsoli Ozod Sharofiddinovning ham haykali o‘rnatildi. 2018-yilda esa O‘rtta Osiyoda yagona bo‘lgan O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etilganligi va aynan universitetga ramziy ma‘noda Ozod Sharofiddinovning nomi berilganligi, shuningdek universitet miqyosida adib nomidagi stipendiya joriy etilgani, albatta yozuvchimizga ko‘rsatilgan ulkan ehtirom ifodasidir. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining asl farzandini yuqorida tilga olingan asarları o‘ziga xos chuqur bilimdonlik, qiyosiy tahlil, keng mushohadalar asosiga qurilgani bilan ajralib turadi. Ozod Sharofiddinov qoldirgan ma‘naviy-ma‘rifiy meros o‘zida mana shunday xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan va bu asarlar kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘z qiymatini aslo yo‘qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Озод Шарофиддинов замондошлар хотирасида. -Т.: Шарқ, 2019.
2. Ozod Sharofiddinov. Tanlangan asarlar. -Т., 2019.
3. <https://yangiliklar//uz/>

³ [YANGILIKLAR \(gov.uz\)](http://yangiliklar//uz/)